

**FARZAND BOR EKAN, ODAMZOD HAMISHA EZGU ORZU VA
INTILISHLAR BILAN YASHAYDI.**

I.KARIMOV

(«YUKSAK MA'NAVIYAT - YENGILMAS KUCH» KITOBIDAN)



2008-yil
7-iyul
N:27
(66672)



2008-yil – «Yoshlar yili»

**«O'zbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi kelajagimizning navqiron
avlodiga bag'ishlab 2008-yil
«Yoshlar yili» nomli plakatlarni
bosmadan chiqardi.
Ushbu plakatlarning 2000 dan
ortiq nusxasi Xorazm viloyati
yoshlariga homiylik asosida sovg'a
qilindi.**



Imkon tug'ilgan joyda ishonch va tafakkurni birlashtirish lozim, degan so'zlarni qayerdadir o'qigan edim. Garchi yolg'iz qalb uchun bu g'oya tog'dek ulkan bo'lsa-da, ezgulik yo'lida qiyinchilikdan cho'chimay ter to'kishdan a'loroq ish yo'q.

Katta karvonimiz kelajakka o'ziga yo'l ochib, yorug' manzillar tomon intilmoqda. Tafakkurimiz kengliklarida esa o'zbekona soddalik, tantilik va bag'rikenglik daraxtlari barq urib gullab turibdi. Hatto moziyga qarasangiz ham, xalqimiz qalbi bahor kabi yashnab, dunyo dunga, chobuki, zaminga azim chinorlardan tortib, eng nafis lolalarini hadya etganini ko'rasiz va yurt sizdan fidoyilikni so'rab turgan shu kunlarda nechun men ham ajdodlarim kabi yashamasligim, ulardek nafaqat Vatanga, elga, butun zaminga ezgulik urug'ini sochmasligim kerak, degan xayol pog'onalarida sobit qolasiz hamda quyosh, tun-kunning almashishi, fasllarning o'z paytida kelishi betakror mo'jiza ekanligini mushohada etgan holda, ularning bittasi ham zaminga xiyonat qilmayapti, vaqtdan adashmayapti, deya o'ylaysiz va men ham insoniylik burchimni xuddi shulardek adashmay, minnat qilmay, bong urmay bajarishim kerak, degan tuyg'ular quchog'iga kirasiz.

Behudaga bu so'zlar bilan oshno bo'layotganimiz yo'q. Xorazmga qilgan ijodiy safarimizning birinchi kunida, ilk uchrashuvda ana shular to'g'risida so'z bordi. To'g'risi, biz Yangibozor tumani hokimligida tashkil etilgan uchrashuvdan shuncha katta taassurot bilan qaytamiz, deb o'ylamagan edik. Safarga chiqish oldidan biroz hayajonga tushgan va bugungi odamlarga biror nima berib qayta olamizmi, degan xavotirga ham borgan edik. Ayniqsa, bu gal «Yoshlar yili» munosabati bilan ko'hna Xorazmning qator tumanlariga, yoshlar huzuriga borayotganimizni o'ylar ekanmiz, yelkamizda nechog'lik mas'uliyatli vazifa qo'yilganini sezib, idrok etib turardik.

I. YANGIBOZORDA

Boshimiz uzra jarangdor qo'shiq kezib yurar, ko'ngillarimizga jo'shqinlik ato etib, bizni ezgulikka chorlar edi. Biz uning ohanglarida qadim Xorazm mumtoz kuylarini, muazzam Xiva minoralari niliy koshinlarining jilolarini, Amudaryo epkinlarini, «Xorazm lazgisi»ning betakror aks-sadolarini eshitgandek bo'lib, o'zimizcha zavq olardik. Biz uni «Shodlik qo'shig'i» deb atadik. Zero, inson shodlikni sevadi, uni o'z ishlaridan, ezgu sa'y-harakatlaridan izlaydi.

Aziz o'quvchim!

Maqolani yozgan akamiz shoirona gaplarni ko'p va xo'b to'qibdi, deb o'ylamang!

Shodlikda ma'no katta: u insonni go'zallikka oshno etib, uni bog'larga boshlab, bog'bon bo'lishga, keng dala, vodiylarga yetaklab, bunyodkorlikka va yana qanchadan-qancha yaxshi ishlarga undaydi. Mol-dunyo, ichiqoralik, o'zibo'larchilik esa insonni shodlikdan uzoqlashtirib, falokat va baxtsizlikka tashlaydi. Shuning uchun donolar, avvalo yo'l

Davomi 2-betda

ISTIQLOL TIMSOLI

«O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinganiga 16 yil to'ldi.

1992-yilning 2-iyul kundan boshlab Davlat gerbi tasviri muhrlarda, rasmiy nashrlarda, qog'oz va tanga pullarda, qimmatli qog'ozlar va fuqarolar hujjatida aks ettirildi.

Davlat gerbimizda ona Vatanimizning betakror manzarasini hamda xalqimizning azaliy orzu-maqadlarini mujassam etgan sevikli timsollarimizdan biridir. Oliy ramzimiz har birimiz uchun qadrlidir.

Davlatimiz gerbi – 16 yoshda



TOSHKENTNING 2200 YILLIGI OLDDAN

SHOSHMI, CHOCHMI?

Qadrli «Tong yulduzi» gazetam!

O'rtog'im bilan Toshkent shahrining qadimgi nomlari haqida bahslashib qoldik.

Zafar qadimda «Choch» bo'lgan, dedi. Men «Shosh» deb eshitganman. Qaysi biri to'g'ri?

Hurmat bilan Akmal HAYDAROV,

Bo'ka tumani.

Qadrli Akmalbek!

Zafar o'rtog'ingizning gapi ham to'g'ri. Siz ham adashgan emassiz. Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga qaraganda, Toshkentning eng qadimgi nomi «Choch» bo'lgan. Arab alifbosida «ch» harfining mavjud emasligi bois, arabiy asarlarda «Shosh» deb yuritilgan.

X asrda yashagan arab geografi «Istahariy kitob al masolik val-momolik» («Yo'llar va mamlakatlar to'g'risidagi kitob») asarida uni Binkat deb tilga oladi.

«Hudud al olam» («Olamning chegaralari») kitobida esa Binkat Chochning poytaxti hisoblanib, shahar kamon va o'q-yoylari bilan mashhurli aytiladi.

Abu Rayhon Beruniy bobongiz o'zlarining «Hindiston» asarlarida: «Tosh so'zi asli turkcha bo'lib, Shosh ko'rinishini olgan. Toshkand – toshli qishloq demakdir», deb izohlab o'tganlar.


Mahmud Qoshg'ariy esa XI-XII asrlarda Toshkentning «Tarkan» deb yuritilganini aytib o'tgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Toshkentning ba'zan Shosh, ba'zan Choch deb yuritilganini yozgan.

XVI asrning oxiri XVII asrning boshlaridan e'tiboran shahar Toshkent nomi bilan yuritila boshlagan.

Bolalar, tarixni o'rganish vatanga bo'lgan mehr ifodasidir. Tengdoshingiz Akmaljon kabi siz ham shahringiz tarixini o'rganishga shoshiling.

Demak, xatlaringizni kutamiz.



QAYERDA

CHO'MILISH KERAK?

Yozda mazza qilib cho'milish biz bolalarning jon-u dilimiz. Bugun ba'zi tengdoshlarimiz oromgohlarda dam olmoqdalar. U yerda barcha shart-sharoitlar bor, cho'milayotganlarida bolalar kattalarning nazoratida bo'ladilar. Ta'tilni uyda o'tkazayotgan bolalar-chi? Ularning ba'zan ko'chadagi favvoralarda, turli ariq va anhorlarda cho'milayotganlarini ko'rganimizda, buvajonim menga ular noto'g'ri qilayotganlarini tushuntiradilar. Ularning aytishlaricha, toza suvda «kalla tashlamay» cho'milish kerak ekan. Siz bunga nima deysiz?

Abdulaziz HASANOV,

Chilonzor tumanidagi 114-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi



MAKTAB

OROMGOHLARIDA

Namanganlik tengdoshlaringizning yozgi ta'tillari soz o'tmoqda, desam ishonasiz-a? Zero, bizning so'lim vodiyning o'zi tabiati bilan dam olish maskanning o'zginasi. Bundan tashqari, shahrimizdagi maktablarning har birida oromgohlar tashkil etilgan. Ularda bugun 1230 nafar o'quvchilar maroqli dam olmoqdalar. Yoshlarning huquqiy va ma'naviy bilimlarini oshirish maqsadida, «Siz qonunni bilasizmi?», «Ogohlik davr talabi», «O'zbekiston mustaqil diyor» kabi mavzularda turli bahs va munozaralar, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. Turli to'garaklar ham albatta bolalar xizmatida. «Yoshlik» cho'milish havzasi esa hamisha gavjum.

Kamola NOSIROVA, Namangan viloyati

tanlay bilish kerak, deyishadi. Kimki shodlik yo'lini tanlasa, u albatta murod-maqsadiga yetadi.

Yangibozordagi uchrashuvlar shodlik yo'li tanlangani bois, ikki tomonlama ezgu fikrlarning uyg'unligi bo'ldi, desak yanglishmaymiz. Uchrashuvda ishtirok etgan shahar va tuman hokimlarining hamda umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha o'rinbosarlari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining yetakchilari bilan «Yoshlar yili» Davlat dasturi, undan kelib chiqadigan talablar va yana qator masalalar bo'yicha samimiy muloqotlar shodlik asosida o'tdi. Tumanda yetmish mingdan oshiq aholining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Xalq ta'limi bo'limi Bosh mutaxassisi Jumanazar Yusupov «Yoshlar yili» Davlat dasturining qabul qilinishi haqida gapirar ekan, uning yoshlarimiz buguni, ertasi uchun naqadar katta ahamiyatga ega, xususan, dasturning tuman yoshlari uchun o'rni katta ekanligini aytib o'tdi. Biz ishtirok qatnashchilariga Toshkentdan olib borgan kitoblarimizni sovg'a qildik.

Zalda shodlik qo'shig'i yangradi.

– Bitta kitob sovg'a qilgan odam mingta savob oladi, – dedi yangibozorlik Baxtiyor Yangiboyev mamnun bo'lib. – Bizlarga ko'proq lotin alifbosidagi kitoblar zarur bo'lmoqda. Iste'dodli yoshlarimiz ham ko'p. Ularning ijodiy ishlarini to'plab, kitob holida nashr etilsa, yaxshi bo'lardi.

Qarddon hamrohlarimiz – «O'qituvchi» NMIU yetakchi muharriri Saidahmad Mirzaxo'jayev, «Cho'lpon» nomidagi NMIU yetakchi muharriri Abdurahmon Akbar bilan birgalikda yig'ilgan katta-yu kichikning juda ko'plab savollariga javob berdik. Xususan, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va «Yoshlar yili»da ularning eng sara she'r, hikoyalarini to'plab, kitob holida chop etish va dasturda belgilangan boshqa vazifalarni amalga oshirish to'g'risida ham so'z yuritildi. «Tong yulduzi» gazetasining keyingi sonlarida lotin alifbosida bir necha taniqli adiblarning va yoshlarning ijod namunalari kitob holida yetkazib berish to'g'risidagi xabarni yig'ilganlar mamnunlik bilan qarshi oldilar.

Ularning iltimoslari inobatga olinib, gazetamizda xorazmlik o'smir yigit-qizlarning she'r, hikoya va lavhalari hamda Lev Tolstoyning «O'qish kitobi» ilk bor o'zbek tilida kitobcha shaklida e'lon qilindi.

Hokimiyat vakillari B. Matniyozov, D. Ramazonova ham «Yoshlar yili» Davlat dasturining Xorazm viloyati, xususan, Yangibozor tumani bo'yicha ahamiyati va o'rni, rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan olib borilayotgan amaliy ishlar xususida axborot berdilar.

2. GURLANDA GURILLADIK!

Aziz bolalar!


Taniqli shoir akangiz Abdurahmon Akbar:–Uchrashuvimiz Gurlanda qanday kecharkin? – deya yana-da faolroq bo'lishga chorlagandek ishora qildi.

Biz erta tongdan tuman hayoti, yoshlari bilan tanishishni boshlab yubordik. Har yonda shodlik qo'shig'i kezib yurardi. Qo'shiq bizni keng dalalarda, ona Amu bo'ylarida, bog'larda qarshi olib, ko'nglimizni chog'ladi. Tumandagi 43 ta umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan 25 mingdan ortiq o'quvchilarni ezgulikka chorlab, ularga saboq berayotgan 222 nafardan ortiq



Davomi 3-betda

Sirdaryolik tengdoshingiz Sayhunobod tumanidagi 28-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi Shohinur Usmonova yozgi ta'tilda mazza qilib kitoblar o'qiyotgan ekan. U hatto kitob haqida she'r ham yozibdi.



KITOB

Kitob bilim bulog'i, O'quvchining o'rtog'i. Bizga o'rgatar odob, Dunyo ko'rkidir kitob.

Kitob o'qisa inson, Dunyolarni taniydi. Uning bilan har on Ilm koni boyiydi.



Boshi 2-betda

murabbiyning qalbini shodlikka to'ldirgani aniq edi. Bu yerda faoliyat yuritayotgan 6 ta kollej, 5 ta maktabdan tashqari tarbiya muassasalar uzra baralla yangrab o'tgandek bo'ldi.

Qanday ajoyib qo'shiq bu! Bu to'g'rida yozmay bo'ladimi?!

«Yoshlar yili» Davlat dasturini bajarish bo'yicha aniq chora-tadbirlar asosida ish yuritayapmiz, – deydi Gurlan xalq ta'limi mudiri **I.Abdullayev**. – Bu hammamizning vazifamiz, chunki bugungi avlod tarbiyasi uchun barchamiz birdek javobgarmiz. Yurtimizda yosh avlodga shunchalik katta g'amxo'rliklar qilinayotganining o'zi olamshumul voqea, desam yanglishmayman. Dasturda ta'kidlanganidek, yosh avlodni hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi eng muhim burchlarimizdan biridir.

Gurlanlik kekxa murabbiylardan biri Mahmud Matqurbonov:

– Yoshlarimiz shunchalik katta g'amxo'rliklarga shukrona qilib, ota-bobolaridek ulug' ishlarni amalga oshirib, yurtimizning obro'siga obro' qo'shishlari lozim.



Bugun sportda yoki boshqa sohalarda yutuqqa erishayotgan bolalarimizdan mamnunman. 42-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida yurtimiz sharafini himoya qilib, g'olib bo'lgan farzandlarimni chin dildan qutlayman. Gurlanlik yoshlarni ham ulardan o'rnak olishga chaqiraman va bizning tumanda shunday iqtidorli yoshlar ko'p ekanligidan xursandman.

Tuman faollari bilan uchrashuvda «Yoshlar yili» Davlat dasturida belgilangan boshqa qator chora-tadbirlar to'g'risida ham muloqot, savol-javoblar bo'ldi.

Shodlik qo'shig'i ohanglariga mahliyo bo'lib kelayotgan shoir akangizga hazil qildik.

– Gurlandan qanday qaytayapsiz?

Abdurahmon Akbar beg'araz kuldi:

– Gurlandanmi?.. Menimcha, hammamiz gurillab qaytayapmiz!

Yengil va samimiy kulgi yangradi. Shodlik qo'shig'i bor bo'l, degan o'y o'tdi ko'nglimizdan.

3. SHOVIDA SHOVULLAB...

Shodlik qo'shig'i keng dalalar, tiniq anhor, daryolar orqali bizni qadimiy Shovot tumaniga olib kirdi.

– Gurlandan gurillab o'tdik, Shovotdan qanday o'tamiz? – dedi Saidahmad aka.

– Shovotda shovullaymiz-da! – deya hazillashdik.

Shodlik qo'shig'i va beg'ubor kulgi bilan uchrashuvlarni boshladik.

Tuman viloyatning Shimoliy hududida joylashgan bo'lib, qo'shni Turkmanistonning Toshhovuz hududi bilan chegaradoshdir. Tuman shaharcha va 11 ta qishloqdan iborat. Aholisi 140 mingga yaqin. Ularning qariyb 58 ming nafarini voyaga yetmagan yoshlar tashkil etadi.

Tuman hududida 4 ta kasb-hunar kolleji mavjud bo'lib, ularda 4634 nafar yoshlar tahsil olishmoqda. 24857 o'quvchiga mo'ljallangan 41 ta maktab zamonaviy loyiha asosida bunyod etildi. 33 ta maktab kompyuterlashtirilgan, 22 ta maktabda esa bir smenali o'qish tashkil qilingan. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Shovot tumani bo'limi Kengashining boshlang'ich tashkilotida 12 mingga yaqin a'zosi bor. Shu davrgacha 9 dan ortiq ko'rik-tanlov va boshqa tadbirlar o'tkazilib, iqtidorli yoshlarga keng imkoniyatlar berildi.

Bugun tumanda «Yoshlar yili» Davlat dasturi asosida har tomonlama muntazam ish olib borilmoqda. Bularning bari, aziz bolalar, qadrlı yoshlar, sizlar uchun, sizlarning kamolotingiz uchun, chin inson bo'lib yetishmog'ingiz uchun amalga oshirilmoqdaki, o'rni kelganda, anglashingiz lozimki, inson shon-shuhratni qasrlardan izlaydi, ammo u shodlik shamollari qo'ynida, jilg'alar bo'yidagi oddiy chaylalarda sizni kutib turadi.

Uchrashuvda so'zga chiqqan tuman oqsoqollar Kengashi va mahalla jamg'armasi raisi Qadamboy Matsafoyev:

– «Yoshlar yili» Davlat dasturiga nihoyatda jiddiy ko'z bilan qaralib, har tomonlama puxta rejalar asosida tayyorlandiki, bunday dastur bugungi yoshlarimizning to'g'ri tarbiya topishlarida muhim omil bo'la oladi.



Yillar o'tib, bugungi yoshlar biz ko'zlagan komil insonlar bo'lib yetishsalar va yurtimiz ravnaqi uchun qo'llaridan kelgancha hissa qo'shsalar, maqsadga erishgan bo'lamiz! – dedi.

Xiva tumanidagi 51-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Komiljon Masharipov:

– Yangi o'quv yilida maktabimiz to'liq ta'mirdan chiqadi. Hozirgacha 80 foiz qurilish-ta'mirlash ishlari



bajarib bo'lindi. Har kuni 50-60 nafar quruvchilar astoydil mehnat qilyaptilar, 1-sentabr kunida «Tong yulduzi» jamoasi tantanamizda qatnashsa, xursand bo'lardik, – deya niyatini bildirdi.

Albatta, hali ijodiy safarlarimiz yana davom etadi. Axir biz Sizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va qo'lga kiritilayotgan yutuqlar to'g'risida xabar, maqola va lavhalar yozish niyatidamiz. Yuqorida aytganimizdek, imkon tug'ilgan joyda unga tafakkurni uyg'un etish har

Davomi 4-betda

Boshi o'tgan sonda

(Hikoya)

Afsus

Yana orqa ko'chadagi do'xtir opaga yugurdi.

Do'xtir opa onasini ko'rib bo'lib, ikki qog'ozga dorilar yozib berdi. «Shamollash kuchli, jiddiy davolanishlari kerak», dedi xavotirlik bilan.

Dilmurod do'xtir opani kuzatdi-yu, Sherzodning uyiga yo'l oldi. Ukasi ham ergashdi. Soat kechqurungi 21 lar edi. Eshikni Dilobar ochdi.

– Akam uxlab qoldi. Ishing bormidi? Ko'rinishing juda g'alati-ku. Charchadingmi? Tobing qoehdimi? Hozir uyg'otaman, shoshma, – dedi

hovliqib Dilobar.

– Yo'q, yo'q, uyg'otma, men ketdim, – dedi-yu, orqasiga qayrilib tez-tez yurib ketdi.

Nariroqqa borishganida, Dilmurod to'xtadi. Xayolida rejalashtirgan ishini ukasiga aytdi. Elmurod qo'rqib ketdi. Garchi u Dilmuroddan bir yoshga kichik bo'lsa ham, «ko'cha ko'rmagan» bola edi. Akasini bu yo'ldan qaytarishga harakat qildi. Ammo Dilmurod uning gapini eshitmadi ham. Ular ishxonaning garajiga yaqinlashishdi.

– Sen qo'rqma, qorovul qo'yilmagan. Meni shu yerda kutib tur. Birov kelsa, baqirasan, bu paytda kim ham ishxonada bo'lardi, – dedi-yu, garajning orqa derazasini sindirib, xona tomon yurdi. U yerdagi telefon, kompyuterni amallab olib chiqib, deraza tashqarisida turgan ukasining qo'liga

uzatdi. O'zi esa mashina yuvadigan joyga borib, benzin oldi. Iz qoldirmaslik, bir yo'la o'sha «xo'jayin»dan alamini olish uchun benzinni deraza atroflariga, stol-stullarga to'kdi va gugurt chaqib yubordi. Olovning bunchalik tez alanga olishini kutmagan Dilmurod dovdirab qoldi. Ukasining baqirganini eshitdi-yu, o'zini tashqariga otdi.

Yo'lda aka-uka umuman gaplashishmadi. Ikkisining ham ranglari oppoq edi. Qo'llari qaltirar, oyoqlari gandaraklardı. Ukasi qo'lidagi telefon bilan qoqilib tushdi. Telefon go'shagi ko'ziga tegdi. Og'riq ham sezilmadi.

Ko'chada ulardan bo'lak hech kim yo'q edi. Uylariga kirishganida, onasining ingragan ovozigina eshitilardi. Dilmurod sekingina onasi yotgan uyga kirdi. Zebi opa uyqu aralash nimalardir deyayotgandi. Dilmurod tushunmadi. O'z xonasiga bordi. Ukasi ham o'zini

uxlaganga soldi. Ular qancha urinmasin, sira ko'zlariga uyqu kelmasdi.

Ertaga kompyuter, telefonni sotadi. Puliga esa dorilarni oladi. Ammo kimga sotadi. Qayerdan olding, deb so'raganlarga nima deb javob beradi. Onasi bilib qolsa-chi? Yo'q, yo'q, hech kim ko'rmadi-ku, hech kimga aytmaydi. Onasi ham bilmaydi. Dilmurodning xayollarini darvozaning taqillashi bo'lib yubordi. Elmurod ham uxlamagan ekan. Cho'chib o'rnidan turdi. Soatga qaradi. O'n ikki yarim. Xuddi kimnidir kutgandek chaqqonlik bilan darvoza tomonga yugurdi.

Militsiya kiyimidagi ikki kishi ularning uyiga kirib keldi...

Dilmurod o'z hayotidan ko'ra ko'proq yolg'iz qolayotgan onasiga achinar, bilib-bilmay bu ishga qo'l urganidan, ayniqsa, beozorgina ukasini ham sherik qilganidan ming afsusda edi.


Feruza SOYIBJON qizi

Boshi 3-betda

jihatdan foyda keltiradi. Zero, teran ko'z bilan qarasangiz, yurtimizning kundan-kunga chiroy ochib borayotganiga guvoh bo'lasiz. Shodlik aytadi: «Mol-dunyo insonni do-faryod, baqir-chaqirga o'rgatadi. Men bo'lsam uni sabr-qanoatga, ko'ngildan yig'lashga va kulishga o'rgataman, chunki men uning do'stiman». Ana, ko'rdingizmi, dunyoda biror besabab narsa yo'q. Bu kichik so'zimizdan to'g'ri xulosa chiqarsangiz, o'zingizga foyda bo'lishini ham unutmang.

Ha, aytmochi, ayni Mustaqillik bayrami arafasida Xiva tumanidagi 51-umumiy o'rta ta'lim maktabining tantanali ochilish marosimida ishtirok etishni rejalashtirib qo'ydik. Demak, unda yana oliyjanob, a'lochi tengdoshlaringiz haqida hikoya qilamiz.

To'lqin HAYIT,
N.ABDULLAYEVA,
SH.G'ULOMJONOVA



OZ-OZ O'RGANIB, DONO BO'LUR

Aziz o'quvchim!

Biz sen bilan bugun yana do'stlik to'g'risida so'z yuritamiz. Zero, fikri sayoz odamlar do'stlikni tushunmaydilar. Ular o'zlarining injiqliklari va tor fikrlari bilan chin do'stlikni g'urbatda qoldirib, haqiqiy do'stlikning jozibalaridan o'zlarini mahrum etadilar. Ular tekinko'r qarg'a bilan qurbaqaga o'xshaydilar. Qarg'a bilan qurbaqa do'st bo'lishi mumkinmi? Albatta, yo'q.

Rivoyat.



Qarg'a bir kuni hovuz bo'yiga qo'ndi va baliqlar bilan suzib yurgan qurbaqani ko'rib, undan foydalanishni ko'zlad. Qurbaqa bilan do'st bo'lsam, u menga har kuni baliqlarni tutib beradi, deb o'yladi.

– Ey qurbaqajon, ke, sen bilan do'st bo'lamiz! – dedi u ayyorlik bilan.

Qurbaqa uning so'zini rost bilib, u bilan do'st bo'lishga ko'ndi.

Tushga borib, qarg'a o'zini kasallikka soldi va:

– Qurbaqajon, holimni ko'rmaysanmi, yordam bersang-chi! – deya yolvorgan bo'ldi.

– Senga qanday yordam berishim kerak? – deya so'radi qurbaqa.

Qarg'a baliq so'radi. Qurbaqa bir necha daqiqa ichida uning iltimosini bajo keltirdi.

Bu holat har kuni takrorlana boshladi. Bir oy deganda hovuzdagi baliqlar yeb bitirildi.

Qarg'a esa xayr-ma'zurni nasiya qilib, qayoqqadir uchib ketdi. Shu orada sel bosib, hovuzni tosh va qum bosib, suvi qurib qoldi.

Qurbaqa har qancha ko'z tutmasin, qarg'a unga yordamga kelmadi. Quruqlikda qolgan qurbaqa holdan toyib, jon taslim qildi va chivinlarga yem bo'ldi.

Demak, do'stlikda tenglik muhimdir.



Birovni do'st tutsang, o'zing istamagan holda unga bog'lanib qolasan. Lekin bir kun kelib, o'sha do'sting qalbingni jarohatlasa, zahar yutgan kishidek og'ir to'lg'onasan.

Haqiqiy do'stni gar qo'ldan boy bersak, Bedavo bir dardga chalingay yurak.

Axir, do'st tanlashdan oldin yuragini tinglagan kishi yutqazmaydi-da.

Do'stingning qalbi oliyjanob bo'lsa, sen bilan hamisha sirdosh bo'la oladi, ammo biror manfaatni ko'zlab senga yaqin bo'lgandan ehtiyot bo'lish kerakki, ular istagan paytda dushmaningga aylanishi mumkin.

«Do'stinga tushgan xavf meni ham tahlikaga solmas ekan, bu chinakam do'stlik emas», deydi faylasuf Deni Didro.

Shuni bilki, ukajon, aqlli odam hamma narsasidan judo bo'lsa ham, do'stidan voz kechmaydi.

Qissadan hissa: Sen ana shunday do'st top.

N.NIYANSHIXOVA,
Shahribonu IMOMOVA

Yoz kuni. Dam olish uchun daryo bo'yiga tushdik. Bu sokin oquvchi daryoni aholi «Jangchi g'ozlar daryosi», deb ataydi. Nega shunday deb atashar ekanlar-a? Bu nom meni qiziqtirib qo'ydi.

Shu bois ham qishloqdagi keksa bir ayoldan so'rab ko'rdim. Uning aytishicha, daryodan o'ndan ortiq qishloq ahli suv ichar ekan. «Oldinlari suv olib kelish uchun shu daryoga borardik, chunki u vaqtlar yer ostidan chiqadigan ichimlik suvlari yo'q edi. Ammo yolg'iz borishga judayam qo'rqardik. Shuning uchun ham dugonalarimiz bilan birga borardik. Nega deganda, u yerda bizni «jangchi g'ozlar» galasi kutib turardi, ular shunday gerdayib, ko'ksini tog' qilib tizilishib turardilar-ki, go'yo

vatanining xizmatiga shay turgan chinakam askarlarga o'xshardilar», deydi u kishi.

Daryo bo'yiga suvga borganlarning ahvoli tang bo'lishi aniq ekan. Nega

Ehtimol bu yovvoyi g'ozlarni xasislikda ayblarsiz, biroq, daryo «jangchi g'ozlar» uchun cheksiz vatan edi. G'ozlar odamlar suvni ichib qo'yadi-yu, ular uchun

asrab-avaylash kerakligini ana shu g'ozlardan o'rganish mumkin. Bu voqea meni chuqur o'yga toldirdi. El boshiga tashvish tushganda o'zini olib qochadiganlarni ko'rsam, og'rinaman. Hatto ana shu yovvoyi g'ozlar ham o'zlari makon tutgan yerni s h u n d a y qo'riqlashadi-ki, lol-u hayron bo'lasiz.

«O'z yering, o'lan to'shaging», deb bejizga aytishmagan dono xalqimiz. Shuning uchun ham inson non, tuz bergan ona yer oldida bir umr qarzdor. Buni

tushunib yetganlarga, vatan oldidagi mas'uliyatni his etib yashayotganlarga cheksiz havas bilan qarab, ularning safida yashagim keladi.

NAFISA



Voqea

deysizmi? Chunki «jangchi g'ozlar» galasi hujumga shay turarkan. Paqirini suvga to'ldirib qaytayotganlarni ko'rsalar bormi, galalashib quvib, cho'qilab tashlasharkan.

hayot tugab qoladigandek xavotirlanib qarashar ekan. Hayot uchun qanday kurashish lozimligini, tug'ilib o'sgan zaminni va undagi boyliklarni qanday qilib

Kunlardan bir kuni Anvar do'sti Umidning ustidan kulmoqchi bo'lib hiyla ishlatgisi keldi:

– Kelasi hafta chorshanba kuni mening tug'ilgan kunim, hamma o'rtoqlarim kelishadi, sen ham kelgin, – deb aytdi.

Umid aytilgan kuni sinfdoshi Dildorani ham qo'yarda-qo'yamay tug'ilgan kunga sovg'a-salom bilan Anvarning uyiga kelishdi. Ular kelganlarida, hammayoq suv quygandek jim-jit, o'rtoqlaridan esa hech kim yo'q. Hayron bo'lib, Anvarni chaqirdi. Birozdan so'ng, Anvarning onasi uydan chiqib, u uyda yo'qligini aytdi. Ko'ngli xijil bo'lgan Umid Dildorani oldida ham mulzam bo'ldi. Nima qilarini bilmay, biroz ko'chada turib qolishdi. Unga qaytib boray desa, noqulay, chunki Anvarning tug'ilgan kuniga ketayapman, deb chiqib ketgan. Aldanganligini tushungan Umid xijolat bo'lib Dildorani uyiga kuzatib qo'yib, do'sti Shohjahonning uyiga borib, unga bo'lgan voqeani gapirib berdi. Shohjahonning ham Anvarni qilgan ishidan uyalib ketdi va Umidga taskin berdi. Ikki do'st ancha vaqtgacha suhbatlashib o'tirishdi. Kun ancha kech bo'lganda, Umid Anvarga olgan sovg'alarini Shohjahonning uyiga qoldirdi.

Anvar esa qilgan ishidan xursand edi. Umidni laqillatdim, deb hamma og'aynilariga bo'lgan voqeani maqtanib gapirib berdi. O'rtoqlari esa o'ziga indashmasa-da, uning qilgan ishidan jahllari chiqdi va bir-birlariga noto'g'ri ish qilganligini aytishdi. Hash-pash deguncha, oradan bir oy o'tibdi. Mana bugun esa Anvarning haqiqiy tug'ilgan kuni edi. U hamma o'rtoqlarini tug'ilgan kuniga taklif etdi. Yigitlar Anvar Umidni laqillatganligi uchun o'zaro kelishib, uning tug'ilgan kuniga bormaslikka ahd qilishdi. Anvar tayyorgarlik ko'rib, do'stlikni kutar, yigitlardan esa xabar yo'q edi. Anvarning ota-onasi:

– O'g'lim, nega o'rtoqlaring kelishmayapti? – deb so'rashdi.

Anvar nima deyishini bilmay:


– Hozir kelib qolishadi, – deb qo'yaqoldi. Kun ham qoraydi. Yigitlardan esa hamon darak yo'q. Anvar oilasidagilarning, ayniqsa, ota-onasi oldida uyatdan mulzam bo'ldi. Bir oy ilgari Umidni sharmanda qilganligidan qattiq afsuslandi. Bu unga berilgan katta jazo edi.

Muzaffar AHMEDOV

QIMMATGA TUSHGAN YOLG'ON

Qatra





«GEOLOG» YANGI QIYOFADA

Yurtboshimizning Qashqadaryoga safari yosh sportchi bolalarga qo'shqanoq bo'ldi. Ular uchrashuvdan so'ng, yuksak orzular, oydin yo'llar manziliga go'yoki yetib kelgan chempionlardek his etishdi o'zlarini.

Viloyat markazida joylashgan «Geolog» stadioni bugun o'zgacha qiyofada. U yerga tashrif buyurgan har bir inson oltinday sochilayotgan favvoralaridan, quyosh o'z nurlarini quvnoqlik bilan taratayotganidan, zumraddek yashillikdan zavq-u shavqqa to'ladi. O'tgan yilda stadionning shimol tarafidan boshlangan bunyodkorlik ishlari majmuaning chiroyiga chiroy, shaharning ko'rkiga ko'rk bag'ishlamoqda.

Hozir majmuada 25x11m hajmdagi suzish basseyni, bolalar uchun 10x11 m suv havzasi, tennis korti, yoz mavsumida cho'milish uchun plyaj barpo etilmoqda.

«Geolog» bugungi kunda madaniyat va sport sog'lomlashtirish markazi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. 8 ming tomoshabinni bag'riga oladigan o'yingohning yangi qiyofasi asosan «Sho'rtangazkimyo» buyurtmasiga



asosan shahar iqlimini o'rganilgan holda mahalliy me'morlar loyihasi bilan qaytadan bunyod etildi. 520 o'rinli futbol va voleybol maydoni, 10x72 m o'lchamdagi futbol, yopiq maneji va bolalar sport maydonchalari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, yurtimizda futbol ishqibozlari ishonchini oqlayotgan «Sevinch» qizlar futbol jamoasi ham aynan shu yerda mashg'ulotlar o'tkazadi. Yopiq sport maneji 1000 o'rinli zal bo'lib, bu yerda mini futbol, basketbol, stol tenisi uchun sharoitlar muhayyo. Yopiq sport maneji shiftida sintetik qoplamalar ustidan issiq va sovuqni qaytaradigan mato tortilgan bo'lib, bunday qulaylik havo haroratini bir xilda ushlab turishga xizmat qiladi.

Albatta, bunday sharoitlardan ruhlangan qarshiliklar orasida chempionlar ko'payishiga shubha yo'q.

Yozgi dam olish bolalarning maroqli onlaridir. Bu paytda o'tkazilgan sport musobaqalari ularni shirin xotiralarida o'chmas iz qoldiradi.

Yaqinda Toshkent viloyatining Chirchiq, Angren hamda Bo'ka tumanlarida joylashgan «Mehribonlik uy»larida o'qib-yashayotgan bolalarni ommaviy sportga jalb etish, ularning salomatligini mustahkamlash, iqtidorlilarni aniqlash maqsadida spartakiada bahslari bo'lib o'tdi.

«Mehribonlik uy»lari ma'muriyati, viloyat Kasaba uyushmalarining jismoniy tarbiya va sport jamiyati hamda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan musobaqa sportning yengil atletika, mini futbol, voleybol, shaxmat-shashka, tennis to'pini uloqtirish hamda harakatli o'yinlar bo'yicha bo'lib o'tdi. Bir-biridan qiziqarli bellashuvlarda ularni g'alabaga undagan quvnoqlik bo'lsa, tashkilotchilar tomonidan ulashilgan sovg'alar bayramning haqiqiy bezagiga aylandi.

«BOYCHECHAK» VA «SUMCHA»DA MUSOBAQA



ULAR OLIMPIADAGA BORISHMOQCHI «Pekin - 2008»

Indoneziyaning Jakarta shahrida yengil atletika bo'yicha o'smirlar o'rtasida Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Bu musobaqa vakillarimizga ikkita oltin, ikkita kumush, bitta bronza medalini tuhfa etdi.

Qit'amizning 23 davlati sportchilari bellashgan nufuzli musobaqada o'zbekistonlik besh nafar terma jamoa a'zosi ham o'z so'zini aytdi. Natijada ularning barchasi g'olib va sovrindorlar qatoridan joy olishdi. Yurtga jami 5 ta medallar shodasi bilan kirib keldilar. Vakillarimizdan Bobur Shokirjonov, Grigoriy Kamolya, Anastasiya Svechnikova, Sergey Dementov, Sofiya Burxonova bahslarda o'z mahoratlarini to'la namoyish eta oldilar.

Bobur Shokirjonov keyingi yillarda nayza uloqtirish bo'yicha O'zbekiston birinchiligida g'oliblikni hech kimga bermayapti. U kattalar o'rtasida mamlakat kubogining sohibi.



2007-yil yoshlar o'rtasidagi jahon birinchiligida bilimni oshirdi. 2008-yilgi barcha bahslarda muvaffaqiyatli qatnashib, terma jamoaning Dukentdagi ishtirokiga jalb etilgan. Bobur akangiz hozirda Respublika olimpiya zahiralar kollejining ikkinchi bosqichida tahsil olyapti. Ayni kunlarda ustoz Yelena Svechnikova bilan navbatdagi katta

musobaqaga tayyorgarlik ko'rmoqda. Musobaqa shu oyda Polsha davlatida bo'lib o'tadi. Bu bahs yengil atletika bo'yicha jahon birinchiligi bellashuvidir. Shuning uchun chempionimizning tayyorgarlik ishlari jiddiy. Mutaxassislarning aytishlaricha, Bobur Shokirjonov, Anastasiya Svechnikova, Anastasiya Perepelova, Rinat Tarzumanov, Liliya Do'smetovaning katta imkoniyatlari turibdi. Bu «Pekin - 2008» Olimpiadasiga yo'llanmaga ega bo'lish. Nima ham derdik, chempionlarimizga faqat omad tilaymiz.

So'lim go'shalarning qay biriga bormaylik, u yerda bolalarning shodon kunlariga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, oromgohlardagi an'anaviy spartakiadalar bayram tusini olishi dam oluvchilarni sport bilan do'stlashishini mustahkamlamoqda.

Yaqinda Kasaba uyushmalari tizimiga qarashli Parkent tumanidagi «Boychechak» va «Sumcha» dam olish oromgohlarida uch kun davomida musobaqalar tashkillashtirildi. Bahslarda «Alpomish» va «Barchinoy»lar, arqonda tortilish, uzunlikka sakrash, kross, suzish, mini futbol, shaxmat-shashka turlari bo'yicha mahoratlarini sinovdan o'tkazishdi.

G'olib o'quvchilar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Yozgi musobaqalar bolajonlarni harakat qobiliyatlarini o'stirishga, ularning maroqli dam olishlari uchun bir olam quvonch baxsh etmoqda. Demak, oromgohlarda musobaqalar davom etyapti...

Zafar ISMOILOV,
Toshkent viloyati Kasaba uyushmalari
jismoniy tarbiya va sport jamiyati mutaxassisi

ISTIQLOLIM

Istiqlolim buyuksan,
Qadrlisan, suyuksan.
Nurlaringdan qalbim shod,
Vatanim go'zal, obod.



Ikki qo'lim ko'ksimda,
Bor bo'lg'in istiqlolim.
Sen qalbdagi quyoshim,
Osmondagi hilolim.

Zeboxon RASHIDOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Dehqonobod tumanidagi
6-maktabning 4-sinf
o'quvchisi



O'LKAM MADHI

Baland, purviqor tog'lar
Nurga ko'milgan chog'lar.
Ilonizi so'qmoqlar,
Cho'qqilarga chorlaydi.

Xarsanglarda sakrab sho'x,
Irmoqdan tinglab qo'shiq.
Tog'-toshga yayrab jo'shib,
Qalbdagi nur charaqlaydi.

Qir-adirlar qo'ynida,
Xursand bo'laman juda.
Turgandayman cho'qqida,
Qo'lim qanotdek qoqib.

Yurtga boqib to'ymayman,
O'lkam madhin kuylayman.
Vatanim bo'lsin deymen:
– Umring tog'lardek boqiy!

Elyorbek ISMOILOV,
Toshkent shahar, Sergeli
tumanidagi 322-maktab o'quvchisi

VATANPARVAR BO'LAMAN

Ba'zan xayolga tolib,
Turfa o'ylar o'ylayman.
Kim bo'lsam ekan, deya,
Kelajakka bo'ylayman.

Bo'laymikan suzuvchi,
Yo osmonda uchuvchi.
Yoki qo'li gul chevar,
Muallim – bolasevar.

Turfa rasmlar chizib,
Hammani etaymi lol?
Nasib etsa, olima
Bo'larman, men ehtimol.

Orzularim bir olam
Umidlarga to'laman.
Kim bo'lsam ham, do'stlarim,
Vatanparvar bo'laman!

Anora YO'LDOSHEVA,
Toshkent shahridagi
308-maktab o'quvchisi



Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Buning evaziga uni rosa bir hafta qaznoqdan chiqishini ta'qiqlashlariga ham rozi edi, axir u kunini na maktabda, na qaznoqda va na Figg xonimning baqlajon isi anqiydigan mehmonxonasida o'tkazmasligidan baxtiyor edi-da. Bunday imkoniyat uchun esa Garri ancha qimmat to'lashga ham tayyor edi.

Vernon amaki yo'l bo'yi Petunya xolaga atrofni qurshagan olamdan zorlandi. U umuman zorlanishni juda yoqtirardi: birga ishlaydigan odamlardan, firmasi ishiga bog'liq bankning direktorlar kengashidan va yana Garridan shikoyat qilardi. Bank va Garri uning eng suyuqli, aniqrog'i, eng yomon ko'rgan mavzusi edi. Lekin bugun Vernon amakining bosh norozilik sababi mopedlar bo'ldi.

– Shunday andishasiz bezorilar telbalarcha g'izillab yuraverishadi, – vaysadi u bir moped mashinasini quvib o'tganda.

– Kecha mening tushimga esa moped kirdi, – o'zi hamda boshqalar uchun ham kutilmagan ravishda dedi Garri birdan o'z tushini eslab. – U havoda uchib borardi.



Vernon amaki oldida ketib borayotgan mashinaga urilib ketay dedi. Baxtiga u vaqtida tormoz bosishga ulgurdi, keyin shartta Garri tomonga o'girildi, uning afti mo'ylovdor, bahaybat lavlagini eslatardi.

– Mopedlar uchmaydilar! – baqirdi u.

Dadli va Pirs hiringlab kulib yuborishdi.

– Ha, bilaman, – dedi tezda Garri. – Bu shunchaki tush edi-da.

U endi og'iz o'chib gapirganiga pushaymon edi. Garri savol berib qolgudek bo'lsa, Dursllar chida y olmasdilar, biroq, u qandaydir ahamiyatsiz narsalar haqida gapirganida, u tush bo'ladimi yoki multfilmda



g'oyalar.

Yakshanba quyoshli kun bo'ldi va hayvonot bog'ida odam ko'p edi. Boqqa kiraverishda Dursllar Dadli va Pirsning har biriga katta shokoladli muzqaymoq sotib olib berdilar, Garriga esa limon ta'mi keladigan mevali muz tegdi, buning sababi shuki, jilmaygancha Dadli va Pirsga xizmat ko'rsatgan muzqaymoq sotuvchisi uchinchi bola nimani xohlashini so'rab qolguniga qadar ular peshtaxta yonidan nari ketishga ulgurishmagandi. Ammo Garri bundan xursand bo'ldi, u boshini qashlayotgan gorillani kuzatar ekan, maymun quyib qo'ygandek Dadliga o'xshar, faqat uning sochlari qora edi, huzurlanib mevali muzni yalardi.

Garri anchadan beri bunday ajoyib tongni ko'rmagandi. To'g'ri, u sergak turar va o'zini Dursllardan narioroq tutishga harakat qilardi, chunki peshin paytiga yaqin hayvonlarni kuzatish Dadli va Pirsning joniga tekkanini sezib qoldi, demak, ular o'zlari suyg'an mashg'uloti Garrini do'pposlash uchun urinishga qaror qilishlari mumkin edi. Lekin hozircha hammasi joyida edi.

Ular hayvonot bog'i hovlisida joylashgan restoranda ovqatlanishdi. Dadli tort bo'lagi kichikroqligini bahona qilib ayuhannos solganida esa Vernon amaki uning uchun kattaroq bo'lak tort buyurdi, kichigining sarqiti esa Garriga nasib qildi.

Keyinchalik Garri o'ziga o'zi kunning boshlanishi nihoyatda sozligi, ishqilib, oxiri ham baxayr bo'lishini tiladi.

Tushlik taomdan keyin ular jonli burchakka

nimani dir ko'rganimi, uni battar yomon ko'rib ketardilar. Dursllar xuddi bu uning shaxsiy g'oyalaridek darhol aqldan o'z a boshlardilar. U muman, hech kimga keraksiz va nihoyatda xatarli

borishdi. U yer salqin va qorong'i edi, yoritilgan derazalar ortida jondorlar yashiringandi. U yerda, oyna ortida toshlar va ildizlar ustida turli-tuman toshbaqalar va ilonlar sudralardi. Garri uchun bularning hammasi qiziqarli edi, ammo Dadli va Pirs zaharli kobralar, odamni bo'g'ib tashlashga qodir bahaybat ilonlar yashaydigan joyga tezroq borishni talab qilardilar.

Dadli jahonda eng yirik hisoblangan ilonni tez topdi. U shunchalar uzunligidan Vernon amakining mashinasi atrofida ikki marta aylana olar va shu qadar kuchli ediki, uni kulchaday ezib, majag'lab tashlashi mumkin edi, biroq, shu pallada u o'z kuchini namoyish etishga kayfiyati yo'qligi ravshan edi. Aniqrog'i, u kulchadek o'ralgancha uxlab yotardi. Dadli burnini oynaga tirab, yaltiroq jigarrang doiralarga qarab turardi.

– Ayting, u uyg'onsin, – deya yig'lamsirab hiqilladi u otasiga murojaat qilib.

Vernon amaki oynani taqillatib ko'rди, lekin ilon hamon uxlardi.

– Yana shunday qiling! – buyurdi Dadli.

Vernon amaki oynani qattiq tugilgan mushti bilan urib taqillata boshladi, ammo ilon qimir etmadi.

– E, zerikib ketdim, – ming'illadi Dadli va oyoqlarini sudrab bosgancha nari ketdi.

Garri oyna oldidagi bo'shagan yerga borib turdi va ilonga tikilib qoldi. Agar ilon zerikkanidan o'lib qolganida ham u ajablanmasdi, axir ilon butunlay yolg'iz edi va tevaragini kun bo'yi derazani taraqlatib, tinib-tinchimagan odamlargina qurshagandi. Bu hatto yoningga yagona keladigan odam seni uyg'otish niyatidagi Petunya xola bo'lgan qaznoqda yashashdan ham battar edi.

To'satdan ilon o'zining marjondek ko'zlarini ochdi. Keyin g'oyat ohistalik bilan boshini Garrining boshi baravar ko'tardi.

Ilon unga ko'zini qisib qo'ydi.

Garri ilonga ko'zlarini katta-katta ochib qarab turardi. Keyin ro'y bergan voqeani hech kim sezmagani ishonch hosil qilish uchun tezda atrofga alanglab oldi, baxtiga hech kim yo'q edi. U yana ilon tomon o'girildi va o'zi ham ko'zini qisib qo'ydi.

Davomi bor

Gulchehra SA'DULLAYEVA
tarjimasi

UYDAGI:

Nozima AZIMOVA, Mirobod tumanidagi 60-maktabning 4-sinf o'quvchisi:
 - Men ta'tilning birinchi oyida uyda dam olishga qaror qildim. Oromgohda dam olishimni singlim xohlamadi. Ertalab vaqti turib uylarni yig'ishtirib, oyim buyurgan yumushlarni bajarib, kattalarning maqtovlarini eshitdik. Asosiy vaqtimni ustozimiz uyga vazifa qilib bergan mashg'ulotlarga ajratdim. Ustozimiz Alimaskina Irina Yuryevnaga «Farhod va Shirin» dostonini o'qib, rus tilida so'zlab berishimiz kerak edi. Harakat qilsam, sentabr oyida albatta bu dostonni rus tilida so'zlab bera olaman. Xullas, ta'tilimning birinchi oyida uyda ko'nglimdagidek hordiq chiqardim.



OROMGOHDAGI:


Javlonbek SIDDIQOV, Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 16-maktabning 4-sinf o'quvchisi:
 - Ikki yildan buyon «Qibray» bolalar oromgohida dam olaman. Tog' bag'rida bo'lmasa ham, bu oromgoh menga juda yoqadi. Men qatnashishni xohlagan barcha to'garaklar ushbu oromgohda bor. Oromgohdagi hordiq uydagi hordiqdan katta farq qiladi. Chunki oromgohda qat'iy tartib-intizomga amal qilish kerak. Har kuni bir vaqtda uyg'onib, bir vaqtda uyquga ketamiz. To'garaklarga muntazam qatnashib, bilmagan narsalarimni o'rganaman. Peshinda cho'milib, uxlab ham olamiz. Oromgohda rosa chiniqib, uyga ko'ngildagidek hordiq chiqarib qaytamiz.



HORDIQ QANDAY BO'LISHI KERAK?


DALADAGI:

Akmaljon MALLAYEV, Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 9-maktabning 4-sinf o'quvchisi:
 - Tabiatni, jonivorlarni yaxshi ko'raman. Uyda qo'ylarim bor. Ularni tashlab, oromgohga borib dam olishni xayolimga ham keltira olmayman. Tong yorishishi bilan qo'ylarimni haydab, dalaga olib ketaman. O'zim bilan badiiy kitoblarni olib, daraxt soyasida o'tirib o'qiyman. Qo'zichoqlarimni sakrab yurishini ko'rib, zavqlanib ketaman.



BOZORDAGI:

Botir QODIROV, Toshkent viloyati:
 - Iyul oyida hovlimizdagi mevalar g'arq pishadi. Erta turib o'rik va olmalarni teraman. Ularni, eng avvalo, bobom va buvimlarimkiga olib boraman. Ular meni ko'rib, rosa xursand bo'lishadi. Puliga o'quv qurollari olishni rejalashtirib qo'yganman. Shunday qilsam, ota-onamga ko'proq foydam tegadi.



TAHRIRIYATDAN:

Mana, ayrim tengdoshlaringizning fikrlari bilan tanishib chiqdingiz. Ular yozgi ta'tilda o'zlari xohlaganlaridek hordiq chiqarayotgan ekanlar. Kim qanday hordiq chiqarishidan qat'iy nazar, maqsad oltinga teng vaqtimizni behudaga sarflamaslikdir. Xohlang, uyda kitob o'qing, xohlang, tabiat qo'ynida dam oling, xohlang, tog' bag'rida chiniqing, asosiysi, yozgi ta'tilingizni esda qolarli va mazmunli o'tkazing. Bu boradagi fikrlaringizni yozib, bizga jo'nating. Maktublaringizni kutamiz.

GULYUZ yozib oldi

Mulohaza

«MENING TIKONLI DO'STIM»

«Mening tikonli do'stim» maqolasi menga judayam yoqdi. Chunki ushbu hikoya do'stlik haqida ekan. Mening ham chin do'stlarim bor: Sulton, Sarvar, Otabek, Kamoliddin, Kamron, Mirazim, Bobur. Ular menga juda ko'p yordam berishadi. Men ham ulardan qo'limdan kelgan yordamimni ayamayman.

Oybek ZAYNUDDINOV

«SIRINGIZNI KIMGA AYTASIZ?»

Gazetaning 8-sonidagi ushbu maqolani o'rtoqlarim bilan birga o'qidik. Bu mavzu barchamizga manzur bo'ldi. Shunga o'xshash qiziqarli mavzular yana-da ko'payishini xohlaymiz. Istadikki, gazetaning butun bir sahifasi latifalar uchun ajratilsa. Shunda gazeta sahifalari yana-da qiziqarli bo'ladi.

Mardon ANVAROV

BOSHQOTIRMA

Tegirmon turi	Nazmiy asar	Ko'mir havzasibob	Yevropa-dagi poytaxt	Joni-vor
Shoh va shoir				3,14...		
	Kavkazdagi tog'					
Motosikl markasi	Janub mevasi		Gina			Ko'rsatkich qurilmasi
			Oltin	Pul birligi		
Tuxumsimon shakl			Ov			
Bezoz				Avto poyga		Muzqaymoq
Shum bolaning do'sti	Jumboq		Samolyot markasi	Torli soz	Xalq	
		Hassa	Yetuk			
		O'tkazgich				Xona
	Suv jonivori		Boylilik		Belgi	
	Istihola	Iссиqlik	Me-va			
Billim asosi					...tin	

Tuzuvchi: F.ORIPOV

YAXSHI

«BIZ HECH KIMDAN KAM EMASMIZ...»



Kam bo'lmaymiz,
Kam bo'larga yo'qdir asos,
Qayerda bor biznikidek buyuk meros!
Yuragimiz, yo'limiz ham o'zbekka xos,
Yurtimizni Eram bog'dan kam qilmaymiz –
Biz hech kimdan kam emasmiz, kam bo'lmaymiz.

KITOBBLAR

Ushbu she'riy misralar taniqli adib va shoir Abdusaid Ko'chimovning «Muhabbat bog'lari» kitobidan joy olgan. Kitob G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 3000 nusxada chop etilgan.



Ushbu kitobda Vatan, ona yurtga cheksiz muhabbat, tabiat, sevgi-muhabbat tavsifi, ota-ona va do'st-yorlarga hurmat tuyg'ulari qamrab olingan.

Kitob sizning doimiy do'stingiz bo'ladi, deb umid qilamiz.

BOR

ISHONCHNI OQLAYMIZ

Bu galgi sahifamiz mehmonlari Ma'murjon Tangiberganov va Murodjon Matqurbonovlar.

Ma'murjon va Murodjon «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'oliblaridir. Ular muhtasham «Istiqlol» san'at saroyida birgalikda xorazmcha milliy qo'shiqlardan ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lishdi. Ma'murjon Xorazmdagi 9-musiqqa maktabining 3-sinfida milliy ijro yo'nalishi bo'yicha tahsil olmoqda.

Ma'murjonning hayotdagi shoiri: doimo olg'a qadam tashlash.

Qiziqqan fani: adabiyot va ona tili.

Sarguzasht filmlarni yoqtiradi.

Sevimli sport turi: shashka.

Yoqtirgan taomi: osh.

Murodjon ham iste'dod sohiblaridan biri. Uning hayotdagi orzusi katta san'atkor bo'lish.

Tarix va musiqaga oid kitoblarni mutolaa qilishni yoqtiradi.

Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoy-

BUGUNNING



«YANGI AVLOD»LARI

shukurovning ashaddiy muxlisi.

Sevimli sport turi: suzish.

– Biz uchun 2007-yil omadli yil bo'ldi. Musiqaga bo'lgan mehrimiz va ustozlarimiz bergan saboqlari bilan festival g'olibi bo'ldik. «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali bizning ertangi izlanishlarimizda zamin bo'ladi va bizga bildirilgan ishonchni o'z san'atimiz bilan oqlashga harakat qilamiz, – deydi g'oliblarimiz.

Nazokatxon TOJIBOYEVA



Ta'til ham o'qish, o'rganish, izlanishdir

Yandda



– Bolalar, – deb sinfga murojaat qildi o'qituvchi. – Bugun kechqurun oy tutiladi. Bu juda noyob hodisa. Hammanglar uni tomosha qilinglar. Eslaringda bo'lsin, yigirma-yu o'n beshda boshlanadi.

– Qaysi dasturda, birinchimi, ikkinchidami?– deb so'rashdi o'quvchilar.

Nevarasi shahardan qishloqqa buvisini ko'rgani keladi. Buvisi deydi: – Bilmayman, xo'roz o'lgurga nima bo'ldi, uch kundan beri qichqirmaydi? – Uni burab qo'yish esingizdan chiqmadimi, buvijon?!



Shu kunlarda joylarda yurtimizning har bir viloyatida, xususan, Toshkentda ham iste'dodli yoshlarga bag'ishlangan bayramlar bo'lib o'tmoqda. Bu bayramlar esa har yili «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi» hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati markaziy Kengashi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Kelajak ovozi» respublika iqtidorli yoshlar tanlovlari ekanligi hech kimga sir emas.

Bugungi kunga kelib, viloyat hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida 200 nafar go'lib kashf etildi. Birgina 2007-yilning o'zida esa 120 nafar g'oliblar tashkilotchilar tomonidan taqdirlandilar.

Bu esa yurtimizda iqtidorli hamda o'z imkoniyatlarini boshqalarga ham namoyon qilishni xohlaydigan yoshlar kundan-kunga ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tanlovning maqsad va vazifalari esa «Mamlakatimizda o'sib, voyaga yetayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal tarbiyalash, iqtidor va iste'dod sohiblari bo'lgan yoshlarga g'amxorlik ko'rsatish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ijod va bilim cho'qqilarini egallashlariga ko'mak berish, iste'dod va intellektual salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, moddiy va ma'naviy jihatdan imkoniyat darajasida sharoitlar yaratish»dan iboratdir.

«Badiiy ijod» nominatsiyasida «KELAJAK YULDUZLARI» nomli kitob ham nashrdan chiqarildi.

Qamariddin SHAYXOV,
«O'zbekiston» teleradiokanali
boshlovchisi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra
MUXSIMOVA
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAIMMOVA

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh
muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari)

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 22753
Buyurtma N: J 5557